



UDK: 37.013.42:378

*Qayum BAYMIROV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, p.f.n*  
*E-mail: shayimov\_nurislom96@mail.ru*

*O'zMU professori, ped.f.d H.Xudaykulov taqrizi asosida*

## THE MECHANISM OF INTEGRATING PROFESSIONAL SKILLS AND EDUCATION (UPBRINGING) IN THE LEARNING PROCESS

Annotation

This article examines the harmonization of the principles governing professional skill development and the educational upbringing process, as well as certain creative approaches that require special attention in the formation of professional competencies. The relevance of the positive integration of purposeful and meaningful knowledge, skills, abilities, and competencies into the educational process as moral and value-based qualities of personality development, along with their impact on the principles of upbringing, is substantiated.

**Key words:** Lifelong education, education, upbringing, parents, legal guardians, profession, knowledge, skills, abilities, competence, abstract, certificate, diploma.

## МЕХАНИЗМ ИНТЕГРАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ И ВОСПИТАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы гармонизации закономерностей формирования профессиональных навыков и воспитательного процесса, а также некоторые аспекты творческих подходов, требующих особого внимания в процессе формирования профессиональных компетенций. Обосновывается актуальность позитивной интеграции целенаправленных и значимых знаний, умений, навыков и компетенций в образовательный процесс как нравственно-ценностной установки личности, а также их влияние на закономерности воспитания.

**Ключевые слова:** Непрерывное образование, образование, воспитание, родители, законные представители, профессия, знания, умения, навыки, компетенция, абстракт, свидетельство, диплом.

## TA'LIMDA KASBIY MALAKA VA TARBIVANING UYG'UNLASHISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy malaka va tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari uyg'unlashuvi, kasbiy malakalarni shakllantirish va ushbu jarayonda jiddiy e'tiborga olinishi lozim bo'lgan ayrim ijodiy yondashuv masalalari yoritiladi. Shaxs shakllanishida manfaatli hamda maqsadli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaning e'tiqodli axloq sifatida ta'limga uyg'unlashuvining ijobiylik hamda ularning tarbiya qonuniyatlariga ta'siri dolzarb masala sifatida e'tiborga olinishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz ta'lim, ta'lim, tarbiya, ota-ona, qonuniy o'rni bosuvchi, kasb, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, abstrakt, shahodatnoma, diplom.

**Kirish.** Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlarda "tarbiya" tushunchasiga ta'rif va qarashlar o'z davri uchun turli qarashlar bilan ta'riflangan, ammo shunday bo'lsa-da, biz kasbiy malakalar shakllanishi jarayonida tarbiya tushunchasining qo'llanishiga oid yangi bir qarashlar ta'rif berilishini maqsadga muvofiq deb hisobladik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi ("Xalq so'zi" gazetasi, 2025-yil 27-dekabr 274 (9169)-son)da zikr etilgan "Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarurligiga oid fikr-g'oyalari bilan kelajakda faqat kasbiy malaka bilan natijaga erishish mumkinligi aytib o'tildi.

Albatta, tarbiya – shaxsda turli nuqtayi nazarlarni ifodalashga qaratilgan, shaxsning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlashda belgilanadigan ta'sirchan vositalar to'plami hisoblanadi. Tarbiya deb nomlanishdagi mazmun amalda hayot tajribasi bo'yicha kishilar yuzaga keltiradigan holatlar majmuasi bo'lib, tarixiy jihatdan qadimgi va mukammal qadriyat sifatida qabul qilinadi. Demak, ma'lum bir tartibga asoslangan tarbiyasiz

alohida inson, yoki jamiyatdagi kishilik to'plami sifatida mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson va jamiyatning borligini ifodalaydigan qoidalar tarbiyaning ta'sirchan qo'llanilishi bois avloddan avlodga o'tadi va saqlanadi. Pedagogika fani sohasiga oid nashr etilgan yozma manbalarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Tarbiyani bunday tushunishda faqat oila, mahalla va maktab kabi tashkilotlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, tizim va yetakchi g'oyalar, adabiyot, san'at, kino, radio, teleko'rsatuv, umuman olganda innovatsion axborot vositalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, tarbiya tushunchasi keng ma'noda o'z ichiga ta'lim va shaxsning ma'lumoti haqidagi davlat namunasidagi hujjat (keyingi o'rinlarda shahodatnoma, diplom) olish jarayonlarini qamrab olsa, tor ma'noda tarbiya so'zi shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiya muassasalari hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va shahodatnoma, diplom olish tor ma'nodagi tarbiya

ichiga bevosita kirmasa-da, lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'limdagi kasbiy malakalar shakllanishi mexanizmlarida shaxsning faqat bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalari ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-ma'rifiy axloqiy tarbiya sifatлари qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga yuz tutadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun esa har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar hisobidan ishlab chiqarish to'xtovsiz holda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari va takomillashtirishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini rivojlantira bilish uchun jamiyat uzluksiz ta'limi – kasbiy malakalar shakllantirish mexanizmi mos ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ta'sirlarga ega bo'lishi lozim. Sifatli uzluksiz ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarda mustaqil dunyoqarashni yuzaga chiqarishdek mas'uliyatli javobgarliklar malakali, keng ijobiy fikrli pedagog xodimlar zimmasida bo'lishi tabiiy holat desak bo'ladi. Holbuki, ta'lim tashkilotlarida kamol topayotgan kelajak avlod uchun kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarini ijodiy, keng qamrovli tashkil qilish va mashg'ulotlarga asqotuvchi ilmiy asosli muhim tashkiliy ishlarni amalga oshirishni ota-onalar va pedagogik jamoa fikri hamda ehtiyojlariga tayangan holda olib borilishi o'ta dolzarb. Demak, ta'lim tashkilotlari va jamoatchilik o'rtasida uzluksiz ta'lim turlari islohotlariga nisbatan ijodiy muhitni yuzaga keltirish juda muhim talab hisoblanadi va unda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, bu uzluksiz ta'lim jarayonining olib borilishi, ta'lim oluvchilar ota-onalari yoki ularning qonuniy o'rini bosuvchi shaxslarning yetarlicha ilmiy salohiyatlarini ko'rsata olish vakolatiga egaligi bilan bog'liq. Shunday ekan, ta'lim oluvchining ijtimoiy ishlab chiqarish soha yoki tarmoqlariga oid ilk ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi asosli ilmiy izlanishlar natijasidan kelib chiqib yondashish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'zi bo'larchiliklarga bahram berish shart. Uzluksiz ta'lim jarayoni qachongacha faqat abstrakt, amalda tushunish qiyin nazariya va qarashlardan, dalillarga asoslanmagan yondashuvlar, mazmunan eskirgan tartib va asossiz manbalardan iborat bo'lishligi kerak. Ilmiy isbotlangan, bugungi fan tarmoqlarida mavjud qonunlar, qonuniyatlar va qoidalarni o'rganish uchun asoslangan kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarini dolzarb masala sifatida paydo bo'lganligini keltirib chiqarmoqda. Fikrimizcha, ta'lim jarayonida yangilangan tarqatma va didaktik materiallar bilan ta'minlashni fan tarmoqlarida erishilgan ilmiy ijobiy ta'sir kuchia ega natijalarni kreativ va mukammal hamda ishonchli asoslar yordamida ta'lim oluvchilarga o'rgatish, shu bilan birga paydo bo'lgan ilmiy yangilikni ta'lim jarayoniga moslashtirib o'qitish talabini keltirib chiqarmoqda.

Qaysiki, har tomonlama takomillashgan nazariy g'oyalar, zamonaviy mashg'ulotlar ilg'or va innovatsion texnologiyalarga tayangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, ijodiy malaka va ta'sirli kompetensiyalarni shakllantiruvchi bugungi ta'lim jarayonini harakatga keltirgan taqdirda fan tarmoqlari yutuqlariga moslashgan, uyg'unlashgan holat ta'lim oluvchilarning o'ziga xos salohiyatlari hisobidan bajarila boradi.

Ilmiy izlanishlar natijasi ko'rsatadiki, ta'lim tashkilotlari faoliyati ta'lim jarayonidagi maqsadli harakatlarning o'ziga xos talablari bilan takomillashadi va boshqariladi. Ushbu jihatni uzluksiz ta'limdagi dars

jarayonining sifatli sharoiti va unga mos talablarining o'zi isbot etadi. Muhimi, ta'lim jarayonidagi yetakchi ahamiyat kasb etadigan va o'ringa ega ijobiy o'zgarishlarning barchasi ta'lim oluvchilarning ijodiy intiluvchan bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qilsa bo'lgani.

Ta'lim rivoji, unga doir ilmiy izlanishlar sharoitida kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatdan takomillashishi ba'zi yetishmovchilik hamda tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi tabiiy. Bu holat o'z navbatida ilmiy izlanishlar kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlariga oid o'zgacha tartibni keltirib chiqaradiki, bu kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlariga oid jiddiy yangicha qarashlar paydo bo'lishi majburiyatini yuzaga chiqaradi. Yangi qarashlar, tushunchalar, qoida va atamalar bilan boyitilgan kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari hamda amaliyotga tatbiq etilishini qat'iy talablarda tahlil etishga bo'lgan ishonch yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Jumladan, kasbiy malakalarni shakllantirishning zarur mexanizmlari uchun kelgusida olib borilishi lozim bo'lgan ilmiy amaliy yutuqlarga oid zarur talablar bo'lishi aniqlashadi. Aynan, kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarida hech kimni e'tiborsiz qoldirmaydigan og'riqli nuqtalari borki, ularni bartaraf etish jiddiy izlanish, ilmiy asosli va ishonchli xulosalarga kelish masalasining o'ta dolzarbligini oshiradi.

Bugungi tezkor transformatsiya sharoitida kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan ta'lim oluvchilarni amaliy tajribalar bilan ta'minlash ta'lim jarayonida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni kasbiy faoliyat yo'nalishida o'rganishini nazarda tutadigan, kasbiy faoliyat asosida kamida bir kasb yoki ta'lim yo'nalishini egallaydigan, yuqori malakali mutaxassis intiluvchan xodim voyaga yetishini ta'minlaydigan holat hisoblanadi. Aynan mazkur muammo yechimini ijodiy ta'minlab beradigan holat – bu kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarini o'ziga xos nazariy va amaliy jihatdan mukammal tarkib topganligiga bog'liq.

Shu nuqtayi nazaridan yaqin o'tmishga e'tibor qaratsak, unda ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim jarayonining hamma bosqichlarida amalda ro'yobga chiqishi mumkin bo'lmagan o'ta puch g'oyalar o'rgatilib, siyosiyashgan turli qarashlar girdobida bo'lishgan va "porloq kelajagi"ni kommunistik partiya safida bo'lishi bilan tasavvur qilishgan. Ayniqsa, shaxsga sig'inish hollari ta'lim oluvchilarning amaliy natijalar, o'zining hayotiy muhitidagi keng amaliy harakatlarining yuqori darajasiga ijodiy erkinlik yoki ilmiy munosabatga yo'l bermagan. Sir emaski, o'sha totalitar turg'unlik davrda ta'lim oluvchilar uchun mashg'ulotlarning har biri bir xil shakl va mazmunda tashkil etilganligi, shu bilan birga ommaviy ravishda bir xil nomdagi kasb-hunar, amaliy kasbiy faoliyatlarga jalb qilish shiori keng tatbiq etilib, unda faqat belgilangan rejalarni har qanday ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlar bo'lishiga qaramasdan majburiy tartibda bajarish ortidan quvilgan. Xususan, soxta shiorlar, raqam ketidan quvish ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni tashkil etilishi mohiyati, mazmuni va uning hal etuvchi ko'rsatkichlari – ta'lim oluvchilarni amaliy ko'nikma, zamonaviy malaka va kompetensiyalarga o'rgatish talabini, eng achinarli holati, millatlar yoki davlatlar milliy manfaatidan kelib chiqadigan urf-odatlar va an'analari, qadriyatlariga mos mashg'ulotlarning ijodiy tadbir sifatida qaralishini izdan chiqarib yuborgan.

Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy vazifalariga singdirilgan hayoliy talablar oxir-oqibatda ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonlari bosqichlarida ma'lum yo'nalishlaridagi kasblarni egallashi bilan bog'liq milliy madaniyat, udum va an'analarga xos tarixiy izchillikning buzilishiga olib kelgan. Ta'lim oluvchilarda izchillik

shakllanishi lozim bo'lgan ongi va shuurida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalar ilmiy qarashlarida muhim o'rin tutadigan kasb-hunarlar va kasbiy faoliyatlarga yo'llash yoki ular haqida oddiy axborot berish ishlaridagi e'tiqodli, amaliy axloq masalasiga juda sayoz yondashilgan yoki ta'lim oluvchilarning manzilli hamda maqsadli amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi yo'lidagi e'tiqod masalasi mukammal sanalmagan. Hududlarning geografik milliy, etnografik va mahalliy holatlaridan kelib chiqishiga e'tibor qaratilmagan, yuzaki yondashilgan, moddiy va ma'naviy manfaatdorliklar shaffofligi ta'minlanmagan.

Mazkur qarashni quyidagicha bayon etilishi mumkin desak-da, kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari xususida fikr yuritsak. Ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim jarayonini tashkil etishga oid nashr etilgan o'quv adabiyotlarida tarbiyaning birinchi qonuniyati quyidagicha ta'riflanadi: uning samaradorligi muomala sohasiga hamda aniq faoliyat yo'nalishiga taalluqli munosabatlarning qanchalik maqsadga muvofiq tashkil etilishiga erishilgani bilan belgilanadi. Kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari bilan ta'lim jarayonidagi tarbiyaga oid birinchi qonuniyatga boshqacha munosabat, yangicha fikr yuritish zaruriyati mavjudligi namoyon bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchilar shaxsi – kasbiy faoliyati shakllanishi bevosita yoki bilvosita kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlariga o'z-o'zidan bog'liq jarayon. Shundan kelib chiqib, ta'lim oluvchilar shaxsi shakllanishiga oid tarbiyaning birinchi qonuniyatini yangi mazmunda quyidagicha ta'riflasak bo'ladi: kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari asolarida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, zamonaviy malaka va kompetensiyalar shakllanishi – ta'lim oluvchilar kasbiy faoliyati shakllanishini aniq maqsadga yo'naltirishga erishilganligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga pedagogik sohaga oid o'quv adabiyotlarida ta'riflangan tarbiya jarayonining boshqa bir, ya'ni ikkinchi qonuniyati haqida: tarbiyaviy jarayon shaxsning ehtiyoji motivatsiyasini qanchalik ko'proq boyitsa va qayta qursa, yoxud intellektual va hissiy-irodaviy faolligi nechog'lik ko'proq rivojlanisa, bu jarayon samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, deb bayon etiladi. Mabodo, ushbu tarbiya qonuniyatiga oid ta'rifni kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlaridagi bilim tushunchasini tabiat, jamiyat to'g'risida shaxslar tomonidan to'plangan haqqoniy ma'lumotlardan kelib chiqqan, degan ta'rifni beradigan bo'lsak, u holda ta'lim oluvchilar shaxsi shakllanishining ikkinchi qonuniyati quyidagicha ta'rifga ega bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari jarayonidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar va kompetensiyalar ta'lim oluvchilarning yosh davrlari bosqichlariga nisbatan ehtiyojini qondirib, ichki ziddiyatlari (o'qishi)ga oid muammosini

mukammal yechib bersa, ta'lim oluvchilar shaxsi – kasbiy faoliyati shakllanishining amaliy samaradorligi oshishi manzilli va ishonchli sodir bo'la boshlaydi.

Shuningdek, o'quv adabiyotlarida tarbiya jarayoniga doir uchinchi qonuniyatni tarbiyaviy jarayon shaxsning amaldagi ta'sirchan sohasini harakatga keltirsa, amaliy ta'sir etuvchi vosita hisoblangan ta'limni ta'minlovchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyat birligini ta'minlansa, uning samaradorligi ancha ortadi, deb ta'rif beriladi. Demak, ushbu nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarida ta'lim oluvchilar shaxsi shakllanishi qonuniyatini quyidagicha ta'riflasak to'g'ri bo'ladi: kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlarida paydo bo'ladigan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalar Qonun hamda qonun osti me'yoriy-huquqiy hujjatlarida o'z ifodasini topib, tugallangan maqsadli axborot va ma'lumotlardan iborat bo'lsa, ta'lim oluvchilar amaliy faoliyatining birligini ta'minlansa, shuningdek, ta'lim oluvchilar kasbiy faoliyati shakllanishidagi javobgar shaxslarning o'z o'rnini topishida amaliy samaradorlikka olib keladi.

Zotan, uzluksiz ta'lim jarayonida kasbiy malakalarni shakllantirish mexanizmlari – ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim jarayoni ishonarli amaliy axloq darajasi asosiy bajaruvchi kasb egasiga yetib borsagina, ilgari surilayotgan nazariy qarashlar hamda amaliy tartiblar o'zining ijobiy yechimini muqim va qonuniy topadi.

Shunda bilim - murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar;

ko'nikma (mahorat) - yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar;

mas'uliyat va mustaqillik - o'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyati;

yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va analiz qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish kabi vazifalarni malaka va kompetensiyalar bajarib beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Ryespublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 29-oktyabr, O'RQ-576-son.
2. O'zbekiston Ryespublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son.
3. "Xalq so'zi" gazetasi, 2025-yil 27-dekabr 274 (9169)-son.